



BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING MA’NAVIYATINI RIVOJLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

*Alibayev Doniyorjon Shuxratjonovich,
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi
milliy institutining tayanch doktoranti*

Annotatsiya. Maqolada boshlang‘ich sinif o‘quvchilarining axloqiy, ma’naviy va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan samarali pedagogik metodlar, shuningdek, oila, maktab va mahalla o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikning muhimligi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: axloqiy tarbiya, qadriyatlar, ma’naviyat, metodlar, rivojlanish, hamkorlik, oila, maktab, mahalla, o‘quvchilar.

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro maydondagi mavqei va ahamiyatini belgilovchi asosiy ijtimoiy omillardan biri bu – ma’naviyatdir. Tarixiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek davlatchiligining uch ming yillik rivojlanish yo‘lida ma’naviyat muhim omil sifatida shakllanib kelgan. Shu bois mustaqillikning dastlabki yillaridanoq milliy qadriyatlarni tiklash va ularni mustahkamlash jamiyat taraqqiyotining dolzarb vazifalaridan biriga aylandi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida olib borilayotgan ma’naviy-ma’rifiy ishlarning mazmunini to‘liq ochib berish maqsadida, “ma’naviyat” va “ma’rifat” tushunchalarining lug‘aviy va ilmiy jihatdan tahlili muhim ahamiyat kasb etadi. “Ma’naviyat” tushunchasi arabcha “ma’nolar majmui” degan ma’noni anglatuvchi atama bo‘lib, insonning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy va diniy qarashlari, dunyoqarashi va qadriyatlar tizimini ifodalaydi. Insoniyat o‘zining uzoq tarixiy taraqqiyoti davomida hayotiy tajribalarini to‘plab, tabiat bilan o‘zaro munosabatda bo‘lib, mavjudlik, o‘lim, Vatanga sadoqat, milliy qadriyatlar, ijtimoiy burch va shu kabi masalalar yuzasidan bilim va tushunchalarni shakllantirib, ularni kelgusi avlodlarga yetkazib kelgan.

O‘zbek xalqi ham o‘ziga xos milliy-ma’naviy merosga ega bo‘lib, boy bilim va qadriyatlarni avloddan-avlodga yetkazib, ularni rivojlantirishga katta e’tibor qaratib kelmoqda. Shu nuqtai nazardan, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishda har bir ijtimoiy qatlam xususiyatlarini inobatga olish, ularning ta’sirchanligi va amaliyligini oshirish zarurati yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ma’naviyat tushunchasi pedagogik nuqtai nazardan turli tarkibiy qismlar bilan bog‘liq bo‘lib, “ma’naviy qadriyatlar”, “shaxsning ma’naviy madaniyati”, “o‘quvchining ma’naviy madaniyati”, “ma’naviy ehtiyoj”, “ma’naviy qiziqish”, “shaxsning ichki ma’naviy dunyosi”

kabi tushunchalar bilan uyg‘un holda o‘rganilmoqda. Pedagogika fanida ushbu tushunchalarning nazariy va amaliy asoslari chuqur tahlil qilinib, ularni shakllantirish jarayoni ilmiy jihatdan asoslab berilmoqda.

Umumta’lim maktablarida olib borilayotgan ma’naviy-ma’rifiy ishlar nafaqat ijtimoiy-pedagogik jarayonning muhim tarkibiy qismi, balki jamiyatning ijtimoiy-siyosiy barqarorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi omillardan biri sifatida ham ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish, yosh avlodning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirish hamda insonparvarlik tamoyillarini keng targ‘ib etishga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida [1] ta’lim-tarbiya jarayonlariga milliy, ma’naviy-axloqiy va insonparvarlik qadriyatlarini keng tatbiq etish alohida e’tirof etilgan. Xususan, har bir fuqaroning ta’lim olish huquqini teng ta’minlash, ta’lim jarayoniga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish, shuningdek, ta’lim va tarbiyaning insonparvarlik va demokratik tamoyillarga asoslanganligi ushbu qonunning muhim prinsiplaridan biri sifatida belgilangan.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma’naviy dunyoqarashini shakllantirish va ularga sifatli ta’lim berishga tayyorgarlik ko‘rish bilan bir qatorda, “Mafkuraviy xurujlarga qarshi milliy g‘oya asosida birgalikda kurashish, oila, maktab va mahalla hamkorligini mustahkamlash va shu asosda ma’naviy tarbiyaning uzviyligini ta’minlash” [2] masalalarining alohida e’tirof etilgani e’tiborga loyiqdir.

Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish hamda oilaviy qadriyatlarga zid bo‘lgan turli ma’naviy tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish maqsadida profilaktik tadbirlarni amalga oshirish, hududlarda sog‘lom tarbiyaviy muhit yaratish va ota-onalarga samarali tarbiya usullarini o‘rgatishga yo‘naltirilgan maqsadli hamda manzilli targ‘ibot ishlari va treninglarni tashkil etish jarayonlariga puxta tayyorgarlik ko‘rish talab etiladi [3].

Mazkur sohada oila, ta’lim tashkilotlari va mahallalar zimmasidagi vazifalar nihoyatda dolzarb bo‘lib, ular yosh avlod tarbiyasida bevosita ishtirok etadi. Bugungi kunda ularning zimmasida farzandlarning ma’naviy-axloqiy rivojlanishini ta’minlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish, ta’lim sifatini oshirish hamda ijtimoiy muhitni yaxshilash vazifalari turibdi. Shuningdek, “oilal, ta’lim tashkilotlari va mahallalarda ma’naviy tarbiyaning uzviyligini ta’minlash” [4] ham muhim vazifa sifatida e’tirof etiladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma’naviy dunyoqarashini shakllantirish, ularni turli ma’naviy tahdidlardan himoya qilish va sog‘lom tarbiyaviy muhit yaratish muhim ahamiyatga ega. Bunda oila, ta’lim muassasalari va mahalla hamkorligi hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ijtimoiy-ma’naviy muhitni yaxshilash, ota-onalarga samarali tarbiya usullarini o‘rgatish hamda targ‘ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish dolzarb vazifalardan biridir.

Qadriyatlarning mazmuni, mohiyati va ifoda etilish shakllari uzoq tarixiy jarayonda shakllangan. Qadim zamonlardan beri insonlar o‘z atrofidagi muhit, turli hodisalar hamda

o‘zaro munosabatlarni baholab, ularning ahamiyati va qiymati haqida fikr yuritib kelishgan. Jamiyat rivojlangan sayin, bu masalaga oid muammolar ham ortib borib, ularni hal qilish tobora muhim ahamiyat kasb etgan. Qadriyatlar turli diniy, ilmiy va siyosiy qarashlarning asosi bo‘lib, falsafiy oqimlar va buyuk mutafakkirlar tomonidan keng o‘rganilgan.

Qadriyatlar — bu insoniyatning ma’naviy taraqqiyoti jarayonida shakllangan va rivojlangan falsafiy tushuncha bo‘lib, ular jamiyat va inson manfaatlarini hisobga olgan holda olamdagi narsa, hodisa va jarayonlarning mohiyatini anglash va talqin etishning muhim vositasi hisoblanadi. Bu tushuncha mohiyatni idrok etish va uni tushuntirishga yangicha yondashuv sifatida namoyon bo‘ladi.

Qadriyatlar muammosi turli davrlarda ilmiy jihatdan o‘rganilgan. Ayniqsa, Markaziy Osiyo mutafakkirlari o‘zlarining ilmiy, badiiy va falsafiy asarlarida ushbu masalaga e’tibor qaratib, uni ilmiy asosda tahlil qilishga intilganlar. Insoniyat tarixining muhim bosqichlarida qadriyatlarning qayta ko‘rib chiqilishi va ularga yangi mazmun berilishi dolzarb ahamiyat kasb etgan. Xususan, milliy mustaqillik yillarida qadriyatlarni chuqur tadqiq etish va ularga ilmiy asosda yondashishga katta e’tibor berilgan.

Sharq mintaqasida, xususan, Markaziy Osiyoda qadriyat tushunchasi ko‘proq diniy-ilohiy mazmunda talqin qilingan bo‘lib, diniy bilim eng yuksak qadriyat sifatida e’tirof etilgan. Natijada, ilmiy qadriyatlarga nisbatan diniy qadriyatlarga ko‘proq e’tibor qaratilgan, dunyoviy ilm egalari esa kamroq qadrlangan. Diniy qadriyatlar ustuvorlik qilgan muhitda dunyoviy ilmlar bilan shug‘ullanuvchilar ilmiy izlanishlarini davom ettirish uchun o‘z yurtlarini tark etishga va boshqa hududlarda ilm-fan bilan shug‘ullanishga majbur bo‘lganlar.

Faylasuf Q. Nazarov o‘zining monografik tadqiqotida insoniyat taraqqiyotining keskin burilish nuqtalarida, ayniqsa, bir ijtimoiy-siyosiy tuzumning boshqasi bilan almashinuvi jarayonida, ilmiy hamjamiyat doimo “Qadriyat nima?” degan savolga javob izlashga majbur bo‘lishini ta’kidlaydi. Olimning ta’kidlashicha, insoniyatning taraqqiyot jarayoni aslida qadriyatlar tizimining uzluksiz almashinuvi va yangilanishi bilan bog‘liq murakkab dinamik hodisa sifatida namoyon bo‘ladi [5, 121-b].

Qadriyatlarning mohiyatini ilmiy asosda anglash inson va uning manfaatlarini nuqtai nazaridan narsa va hodisalarning mazmunini idrok etish, shuningdek, insonning ijodiy faoliyatini rivojlantirish va shaxsiy sifatlarini shakllantirish uchun keng imkoniyat yaratadi.

Qadriyatlar jamiyatning ma’naviy taraqqiyotida sifat jihatidan yangi bosqichni ifodalaydi. Ular ma’naviyat bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ma’naviyat qadriyat tushunchasiga nisbatan yanada keng va chuqur mazmunga ega. Qadriyat ma’naviyat tizimining tarkibiy qismi bo‘lib, uning rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu sababli, qadriyatlar haqida so‘z borganda, avvalo ma’naviy qadriyatlar to‘g‘risidagi tasavvurlar shakllanadi. Jamiyatdagi tub o‘zgarishlar va yangilanish jarayonlarida ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning ahamiyati ortib borishi esa o‘tish davrlariga xos bo‘lgan obyektiv-tarixiy qonuniyatdir.

Ilmiy-falsafiy adabiyotlarda qadriyatlar mohiyatini ta’riflashda ba’zan tushuncha va uning ifodalaydigan narsa hamda hodisalarini aynanlashtirish holatlari kuzatiladi. Natijada,

qadriyat tushunchasiga sodda yondashuv shakllanib, u ko‘pincha ehtiyojlar rivojining mahsuli sifatida talqin etiladi. Masalan, “Eng yangi falsafa lug‘ati”da qadriyat “Absolyutga, shartga yoki maqsadga yo‘naltirilgan obyekt va hodisalarning insoniy, ijtimoiy hamda madaniy mohiyatini aks ettiruvchi tushuncha” sifatida izohlangan [6, 789-b.]. Qadriyat insonning ijtimoiy-madaniy faoliyatining mazmunini aniqlab, tarixiy jarayonlarga shaxsiy nuqtai nazarining shakllanishiga asos yaratadi. Shu bois qadriyatlar vaqt omili bilan bog‘liq holda o‘tmish, hozirgi davr va kelajak o‘rtasidagi uzviy aloqani ta‘minlaydi. Shu bilan birga, ular makon jihatidan faoliyat natijalarining semiotik ifodalanishini belgilaydi hamda insonning narsa va hodisalarga baho berishida tanlov erkinligini kafolatlaydi. Qadriyatlar dunyoni anglash jarayonida qadriyatlarga asoslangan munosabatni shakllantirish hamda dunyoqarash negizida fikrlarni asoslash orqali namoyon bo‘ladi.

Qadriyatlarning mohiyatini falsafiy-aksiologik nuqtai nazardan tushunishda Q. Nazarovning quyidagi qarashlari alohida e‘tiborga loyiqdir: “Qadriyat biror-bir tarzda, shaklda zohir bo‘ladigan, sub‘ekt uchun muayyan ta‘sirini namoyon qiladigan voqelikning turli-tuman shakllari, ko‘rinishlari, narsalar, hodisalar, jarayonlar, munosabatlar, turli sifatlar, xususiyat, axloq va ma‘naviylik mezonlari hamda boshqalarning sub‘ekt uchun ijtimoiy ahamiyatli va qadrini ifodalaydigan umumiy aksiologik kategoriyadir” [5, 41-61].

Yuqorida qayd etilganidek, ma‘naviyat qadriyatlar negizida shakllanar ekan, u insonning o‘zini anglashiga, shaxsiy mohiyatini idrok etishiga, olamni qadriyatlarga asoslangan holda tushunish va baholash mezonini sifatida namoyon bo‘lishiga xizmat qiladi. “Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma‘naviyatdir, – deb alohida ta‘kidlab o‘tgan Prezident Sh. Mirziyoyev. – Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma‘naviyat” [7].

Mazkur tushuncha bo‘yicha hozirgi kunga qadar turli xil ta‘rif va yondashuvlar ilgari surilgan. Ba‘zi tadqiqotchilar ma‘naviyatni tarixiy ong bilan bog‘liq holda izohlagan bo‘lsa, boshqalar uni insonning ruhiy faoliyati sifatida talqin qilgan. Yana bir guruh olimlar esa ma‘naviyatni axloq, estetika va nazariy qadriyatlar majmuasi sifatida ko‘rib, uni haqiqat, donishmandlik va go‘zallik mezonini sifatida tushunish zarurligini ta‘kidlaganlar. Shubhasiz, turli ta‘riflar umumlashtirilgan holda “Ma‘naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug‘ati”da ushbu tushuncha quyidagicha ta‘riflangan: “Ma‘naviyat (arab. ma‘no, ma‘nolar majmuasi) – moddiy hayot bilan doimo yonma-yon yuradigan, inson, xalq va jamiyat hayotining ajralmas qismi bo‘lgan ijtimoiy hodisa” [8,333-b].

Milliy falsafa, psixologiya va pedagogika doirasida ma‘naviyat masalasi atroflicha va chuqur yoritilganini inobatga olgan holda, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari olimlari ushbu mavzuga nisbatan o‘ziga xos ilmiy yondashuvlarni ilgari surganini qayd etish lozim. Masalan, V.A. Belyaevaning fikricha: “Ma‘naviyat jamiyat va inson intiladigan ideal, g‘oya, qadriyatlarni o‘zida ifoda etadi. Madaniyatni ma‘naviyatga

tenglashtirish yoki uni faqat madaniyatning in‘ikosi sifatida tasavvur etish mutlaqo adolatsizlikdir. Ma‘naviyat jamiyat va inson madaniyati asosidir” [9, 15-b.]. Tadqiqotchining qarashlaridan kelib chiqilsa, ma‘naviyat insonning hayotiy faoliyatining negizini tashkil etib, u shaxslararo munosabatlar tizimini hamda borliqni obyektiv anglash usullarini o‘z ichiga oladi.

V.I.Slobodchikov va Ye.I.Isayevlar “Shaxsning ma‘naviyati uning borliqni, o‘zini va dunyodagi o‘rnini idrok etish ehtiyoji hamda qobiliyati bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, inson tabiati qonuniyatlarini anglash asosida jamiyat hayotining yangi shakllarini shakllantirishga intilishida namoyon bo‘ladi” [10], ushbu ta‘rif shaxs ma‘naviyatini insonparvarlik tamoyillari bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qilish, shuningdek, individual qarashlarni umummadaniy faoliyat bilan uyg‘unlikda sharhlash imkoniyatini yaratadi.

Valeri Lesniakning ma‘naviy shakllanishga oid integrativ modelini tahlil qilish natijasida “Ma‘naviyat haqiqatni anglash, turf axil madaniyatli istiqbollar va mustahkam e‘tiqod kabi jarayonlar bilan bog‘liq hodisa” [11], ekanligi haqidagi xulosaga kelgan.

Anderson K.R., Reese R.D. [12], Anthony M.J. [13], Ault N. [14], Howard P. [15] kabi xorijiy tadqiqotchilar ma‘naviy shakllanish jarayoni doirasida mentorlik, “butun umr davomida ma‘naviy kamolotga intilish”, e‘tiqod barqarorligi hamda vijdon uyg‘oqligi kabi masalalarni “ma‘naviyat” tushunchasi bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qilishga alohida e‘tibor qaratishgan.

Mahalliy va xorijiy olimlarning ma‘naviyatga oid qarashlarini tahlil qilish natijasida ushbu fenomenning asosini insonning ruhan poklanishi va qalban kamol topishi tashkil etishi haqida xulosa qilish mumkin. Zero, hayotda ikki qarama-qarshi holatning mavjudligi muqarrar haqiqatdir: ezgu fazilat sohiblari bu foni dunyoda halol va sof yashashni o‘zlarining yuksak maqsadi deb bilsalar, nafsga berilgan va hoyu havas domiga tushgan ayrim shaxslar bunday yuksak ne‘matni anglash darajasiga ham yetisha olmaydilar.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirish natijasida quyidagicha xulosa qilish mumkin: ma‘naviyat – inson ruhiyati va intellektual rivojlanishining yuksak ifodasi bo‘lib, u tug‘ilib o‘sgan yurtiga chuqur hurmat, milliy o‘zlikni anglash, ma‘naviy-axloqiy qadriyatlarni o‘zlashtirish hamda insonning istiqbolli taraqqiyotini belgilovchi “madaniy dastur” sifatida namoyon bo‘ladigan yaxlit tizimdir. Shunday qilib, ma‘naviyatning asosiy tarkibiy qismlari quyidagicha aniqlashtirildi: insonning ma‘naviy mohiyati haqidagi bilimlarni aks ettiruvchi kognitiv komponent; turli hayotiy vaziyatlarda ma‘naviy-axloqiy me‘yorlarga amal qilishga intilishni ifodalovchi xulq-atvoriy komponent; shaxsning o‘zi va atrofdagilarga nisbatan emotsional-qadriyatlarga asoslangan munosabatini ifodalovchi emotsional-qadriyaviy komponent.

Tadqiqot mavzusi doirasida ma‘naviyat bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan axloq masalasiga ham alohida e‘tibor qaratish lozim. Axloq ma‘naviyatning tarkibiy negizi bo‘lib, insonning ma‘naviy va axloqiy yetuklik darajasini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, axloqiy me‘yorlarga rioya qilmasdan turib, insonning ruhiy va jismoniy yetukligi bilan bog‘liq bo‘lgan ma‘naviy barkamollikka erishish mushkuldir.

Ma'naviy-axloqiy qadriyatlar tizimi esa ilmiy va intellektual taraqqiyot, ta'lim-tarbiya jarayonlari, milliy hamda tarixiy-madaniy meros, madaniyat durdonalari, til, adabiyot, san'at kabi sohalarni o'z ichiga oladi. Shu sababli, bu qadriyatlar insonning axloqiy yetukligini shakllantirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Ma'naviy-axloqiy qadriyatlar insonning ma'naviy yetukligi, dunyoqarashi hamda ma'naviy hayoti bilan uzviy bog'liq bo'lib, uzluksiz ma'naviy tarbiyani amalga oshirish, asosiy ma'naviy kompetensiyalarni shakllantirish hamda insoniyatni ezgulik va bunyodkorlik sari yo'naltirishga xizmat qiluvchi qadriyatlar tizimini o'z ichiga oladi. Shu bois, bu qadriyatlar tizimini rivojlantirishda uzviylik, uzluksizlik va integrativlik tamoyillariga alohida e'tibor qaratish muhimdir.

Ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni din, mafkura, adabiyot va san'atdan ajratib tasavvur etib bo'lmaydi, chunki inson faqat moddiy ehtiyojlarini qondirish bilangina kifoyalanmay, balki axloqiy-estetik ideallar bilan ham uyg'un holda hayot kechiradi. Shu sababli, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar insonning borliq va jamiyatga bo'lgan munosabatida, ichki ehtiyojlarining tashqi ifodalanish jarayonlarida (interiorizatsiya va eksteriorizatsiya) o'z aksini topadi. Insonda barqaror munosabat shakllanishi uchun uning maqsad va intilishlari birligi ta'minlanishi lozim bo'lib, buni yo'naltiruvchi asosiy omil sifatida "qadriyatli yo'nalish (orientatsiya)" tushunchasi muhim o'rin tutadi.

T. Parsons "qadriyatli yo'nalish" tushunchasini qadriyatlar bilan bog'liq holda izohlar ekan, jamiyat madaniyatida muayyan me'yor va etalonlarga intilish jarayoni jamiyatning funksional ehtiyojlarini shakllantiruvchi omillardan biri sifatida namoyon bo'lishini ta'kidlaydi [16].

Qadriyatli yo'nalish (orientatsiya) shaxsning etalonlarga intilish jarayonini aks ettirib, uning hayotiy tajribasi hamda maqsad-muddaolarini qamrab oladi. Shu bilan birga, bu tushuncha shaxs rivojlanishining motivatsion, emotsional va intellektual jihatlarini o'z ichiga olgan yaxlit tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot predmeti doirasida "qadriyatlar tizimi" tushunchasini ham tahlil qilish maqsadga muvofiq. Mazkur tushuncha turli qadriyat shakllarining o'zaro bog'liqligini ifodalab, shaxs va jamiyat ehtiyojlari, qiziqishlari hamda xulq-atvorini tartibga soluvchi muhim omil sifatida madaniyat asosini tashkil etadi.

Oldingi ilmiy tadqiqotlarda qadriyatlar tizimini tasniflash bo'yicha turli yondashuvlar shakllanganligini kuzatish mumkin. Masalan, I.P. Podlasiy qadriyatlarni quyidagi tizimlarga ajratgan: transtsendental qadriyatlar (diniy mazmun kasb etib, mutlaq xususiyatga ega), ijtimoiy yo'naltirilgan yoki sotsiotsentrik qadriyatlar (guruhiy, umuminsoniy, kasbiy, milliy va boshqalar), shuningdek, antropotsentrik qadriyatlar (shaxsga yo'naltirilgan individual qadriyatlar) [17, 83-b].

Sotsiologik entsiklopediyada "Qadriyat" mavzusini yoritgan M.A. Makarevich qadriyatlar tizimini turli yo'nalishlarda tahlil qilgan. U hayot mazmunini shakllantiruvchi (yaxshilik, yomonlik, baxt, farovonlik), universal (hayotiy, demokratik, ijtimoiy nufuz, shaxsiy

rivojlanish, shaxslararo munosabatlar), norasmiy (an’anaviy, diniy va urbanizatsiyaga oid) hamda jamiyatga xos qadriyatlar (o‘zaro yordam va hamjihatlik) kabi toifalarni ajratib ko‘rsatgan. Ayniqsa, olimning hayotiy (vital) qadriyatlar borasidagi qarashlari e’tiborga loyiq: u vital qadriyatlarni insonning hayotiy faoliyatini ta’minlovchi va uning davomiyligini qo‘llab-quvvatlovchi asosiy hamda kundalik ehtiyojlar sifatida talqin qiladi. Hayot mazmunini belgilovchi qadriyatlar esa murakkab tuzilishga ega bo‘lib, inson hayotining sir-sinoatlari va noodatiy jihatlarini aks ettiradi [18, 609-610-b.].

Falsafiy nuqtai nazardan “qadriyatlar tizimi” masalasini tahlil qilgan Q. Nazarov jamiyatning barqaror rivojlanishi va ijtimoiy tuzilishning uyg‘unligi natijasida o‘ziga xos qadriyatlar tizimi shakllanishini ta’kidlaydi. Uning fikriga ko‘ra, jamiyatdagi barqarorlik va muvozanat qadriyat tizimlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikda ham namoyon bo‘ladi. Shu sababli, muayyan tarixiy davrga xos qadriyatlar tizimini ajratish, ularni boshqa davr qadriyatlar tizimi bilan solishtirish hamda ularning o‘ziga xos jihatlarini aniqlash mumkin [5, 256-b.].

Pedagogik nuqtai nazardan mazkur masalani o‘rganar ekan, B. Xodjayev qadriyatlar tizimini nihoyatda murakkab va ko‘p qirrali ijtimoiy munosabatlar, aloqalar hamda jarayonlarni o‘zida mujassam etgan yaxlit tabiiy tizim sifatida talqin qiladi. Unga ko‘ra, qadriyatlar tizimi jamiyat va shaxs faoliyati bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularning o‘zaro aloqadorligi muhim ahamiyat kasb etadi [19, 149-b.].

Qadriyatlar tizimi oliy kasbiy tayyorgarlik bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u barqaror, dinamik hamda doimiy rivojlanib boruvchi funksional munosabatlarga ega bo‘lgan qadriyat shakllari va turlarining yaxlit majmuasi sifatida izohlanishi mumkin.

Ma’naviy-axloqiy qadriyatlar tizimi shaxsning ma’naviy-axloqiy me’yorlar bo’yicha bilimga ega bo‘lishi, axloqiy tanlovni asoslab bera olish ko‘nikmalarini shakllantirishi va ularni amaliyotga tatbiq etish qobiliyatini rivojlantirish bilan uzviy bog‘liq. Shu bilan birga, u insonning o‘z ma’naviy olamini anglash va ifodalash orqali qadriyat hamda me’yorlarning turli tizimlari o‘rtasidagi ichki bog‘liqlikni idrok etishiga xizmat qiluvchi qadriyatga yo‘naltirilgan dunyoqarashni shakllantiruvchi subkompetentlik sifatida namoyon bo‘ladi.

Yuqorida bayon etilgan mulohazalarga tayanib, shuni ta’kidlash mumkin: ma’naviy-axloqiy qadriyatlar tizimi mazmun jihatidan madaniy hodisa sifatida integrativ xarakter kasb etib, u umuminsoniy qadriyatlar hamda zamonaviy sharoitda dolzarb bo‘lgan axloqiy me’yorlarni o‘zlashtirish darajasini ifodalaydi

Ma’naviy-axloqiy qadriyatlar tizimi shaxsning integrativ xususiyati bo‘lib, u ma’naviy bilimdonlikni, qadriyatlar tizimida o‘z o‘rnini anglash imkoniyatini hamda turli hayotiy holatlarda ma’naviy yetuklikni namoyon qilish qobiliyatini o‘z ichiga oladi.

Xulosa qilib aytganda, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar tizimi insonning ma’naviy yetukligi, axloqiy tanlovi va jamiyatga bo‘lgan munosabatini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu tizim ilm-fan, tarixiy-madaniy meros, madaniyat, til, adabiyot, san’at kabi sohalarni o‘z ichiga olib, shaxsiy va jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda rivojlanadi. Qadriyatlar

tizimi integrativ xususiyatga ega bo‘lib, shaxsning ma’naviy bilimdonligi va hayotiy holatlarga moslashish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-sonli “Ta’lim to‘g‘irisida”gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-5013007>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son ““O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-son Qarori <https://lex.uz/docs/-4676839>
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori <https://lex.uz/docs/-5344692>.
5. Nazarov Q. Aksiologiya (Qadriyatlar falsafasi). – Toshkent: Akademiya, 2011 yil. – 280 b.
6. Ценность. // Новейший философский словарь: 3-е изд., исправл. – Мн.: Книжный дом. 2003 г. – 1280 стр.
7. Yangi O‘zbekiston: kuchli iqtisodiyot va kuchli ma’naviyat. / “Yangi O‘zbekiston” gazetasi. - №24 (280). – 2021 yil 3 fevral.
8. Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010 yi. – 760 b.
9. Беляева В.А. Теория и практика духовно-нравственного становления и развития учителя в советской и православной педагогической культуре: Автореферат дис. доктора пед. наук. – Москва, 1999 г. 28 стр.
10. Слободчиков В.И., Исаев Е.И. Психология человека: Введение в психологию субъективности – М.: Школа-пресс, 1995 г. – 383 стр.
11. Valerie Lesniak. An integrative Model of Spiritual Formation: A work always in process. // Reflective Practice: Formation and Supervision in Ministry ISSN 2325-2855 Copyright 2013 Reflective Practice: Formation and supervision in Ministry all rights reserved.
12. Anderson K.R. and R.D. Reese (1999). Spiritual mentoring: A guide for seeking and giving direction. Downers Grove, IL, InterVarsity Press.
13. Anthony M.J., Ed. (2006). Perspectives on children’s spiritual Formation, Nashville, TN, B&H Academic.
14. Ault N. (2005). “Envisioning a System-based spirituality for lifelong and Sustainable Christian Education” Colloquium: The Australian and New Zealand theological review 37(1): 45-67 p.
15. Howard P. (2006). A psychospiritual model of spiritual formation: A review of David Benner’s contribution. // Christian education journal series 3, 3(2): 230-239 p.

16. Парсонос Т. О структуре социального действия. – второе изд. – М.: Академический проект, 2000 г. – 880 стр.

17. Подласый И.П. Педагогика: 100 вопросов – 100 ответов. – М.: ВЛАДОС-пресс, 2004 г. – 368 стр.

18. Макаревич М.А. Ценность // Российская социологическая энциклопедия / Под общ. ред. Акад РАН Г.В. Осипова. – М.: НОРМА-ИНФРА-М, 1998 г. – 672 стр.

19. Xodjayev B. Pedagogik aksiologiya. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2012 yil. – 165 b.